

*Chirchiq shahar XTMFMT va TEB
tasarrufidagi 6-sonli umumiy o'rta
ta'lim maktabining mehnat fani
o'qituvchisi Adilova Dilsoraning
"Buyumga oxirgi ishlov berish"
mavzusida yozgan bir soatlik dars
ishlanmasi*



Mavzu: "Buyumga oxirgi ishlov berish"

Maqsad:

- a) **Ta`limiy maqsad-** o`quvchilarga choynak yopqichga ishlov berishni o`rgatish, o`quvchilarni zardo`zlik bo`yicha olgan nazariy bilim, mehnat ko`nikmalarini sinab ko`rish;
- b) **Tarbiyaviy maqsad-** o`quvchilarda badiiy didni, nafosat tuyg`usini o`stirish;
- c) **Rivojlantiruvchi maqsad-** o`quvchilarning zardo`zlik bo`yicha olgan nazariy bilim, mehnat ko`nikmalarini kengaytirish va mustahkamlash;

Darsning turi: yangi bilimlar beruvchi, mehnat ko`nikmalarini shakllantiruvchi

Dars usuli: Mozayka, aqliy hujum, ko`rsatmali, guruhlarda ishlash, bahs-munozara;

Darsning jihozi: Boshqotirma, multimedia, A3 format qog`ozi, testlar, markerlar, kasb egalari rasmlari

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism

- a) Salomlashish
- b) Davomatni aniqlash
- g) O`quvchilarni darsga jalb qilish, darsga tayyorgarligini tekshirish

II. O`tilgan mavzuni aniqlash.

O`tgan darsimizda choynak yopqichni zardo`zlik naqshlari bilan bezatgan edik,

1. Zardo`zlik buyumlarini tarmoqlash usulida yozing

2.Zardoqlikda ishlatiladigan asboblarni tarmoqlash usulida yozing
Mozayka o`yini.
Oldingizdagi shakllarni birlashtirib, biror shakl hosil qiling.

III. Yangi mavzuning bayoni

Bugungi darsimizda o`tiladigan yangi mavzuimiz "Buyumga oxirgi ishlov berish"

Biz o'tgan darslarda "Zardo'zlik" san'ati haqida suhbatlashib, zardoqlik buyumlaridan biri "Choynak yopqichni" guldo'zi usulida bezatishni o'rganyapmiz; bugun tikkan buyumimizni korcho'pdan tushirib, unga astar tikamiz va ichiga oz miqdorda paxta solib uni qavib chiqamiz.

Amaliy ish:

O'quvchilar tushuntirilgan mavzu bo'yicha ishga kirishadilar;

O'quvchilar ishlari nazorat qilinadi, to'g'ri, chaqqon bajarayotgan o'quvchilar ishlari olib namuna sifatida ko'rsatiladi, xatosi bor o'quvchilarga xato joylari ko'rsatilib, kerakli maslahatlar beriladi.

IV. Mustahkamlash:

Darsni mustahkamlash uchun o'quvchilarga boshqotirma beriladi.

			K	O	T	I	B	A
		Z	A	R	G	A	R	
R	A	S	S	O	M			
			B	O	G`	B	O	N

1. Ish yurituvchi
2. Tilla buyumlar yasovchi
3. Mo`yqalam sohibi
4. Bog` ishchisi

			K	A	SH	T	A	CH	I	
		H	A	M	SH	I	R	A		
			S	A	R	T	A	R	O	SH
T	A	R	B	I	Y	A	CH	I		

6

1. Matoga qo`lda gul tikuvchi
 2. Shifokor yordamchisi
 3. Soch-soqol oluvchi
 4. Bog`cha hodimasi
- O`tilgan dars yuzasidan savol - javob o`tkaziladi. Darsda faol ishtirok etganlar rag`batlantiriladi baholanadi.

V. Uyga vazifa:

Choynak yopqichni bitirib, uni bezash ishlarini bajarish.

